

INGLIZ TILI DARSLARIDA GRAMMATIKAGA YONDASHUV (NOUN(OT) MAVZUSI MISOLIDA)

Qo'ziboyeva Xolida Hayitboyevna

Qashqadaryo viloyati Kukdala tumani

66-maktabning Ingliz tili o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada ingliz tili grammatikasi haqida qisman fikr yuritilib, grammatik mavzulardan countable va uncountable noun hamda compound nounlar haqida so'z yuritildi. Shuningdek, maqola davomida bu otlarning hosil bo'lishi, ucompund nounning qismlari haqida va ushbu mavzuni o'qitishga metodik yondashish borasida ham alohida tavsiyalar berib o'tildi.

Kalit so'zlar: Grammatika, ingliz tili, o'zbek tili, otlar, countable noun, uncountable noun, compound noun

Grammatika har bitta til uchun muhim hisoblanadi. Chet tilini o'rganishdan oldin inson, avvalo, o'z ona tilisining grammatikasini mukammal bilmog'i joiz, aks holda chet tilini ham puxta o'rgana olmaydi .

Ma'lumki, barcha tillarda lug'atning eng katta qismini ot so'z turkumiga mansub so'zlar tashkil etadi, jumladan ingliz tilida ham so'zlarning eng katta sinfi ushbu turkum so'zlaridan iboratdir. Ot so'z turkumi kim? Nima? Qayer? so'roqlariga javob bo'ladi. Ingliz tilida ot so'z turkumi Noun deb ataladi. Dastlab misol tariqasida ot so'z turkumini ingliz tilidagi quyidagi so'zlar orqali ifodalashimiz mumkin: a thing – narsa nomlari (book-kitob), a person – shaxslar (Abdurahmon - ism), an animal – hayvonlar, insects – hasharotlar (a dog-it, fly -pashsha), a place – joy nomlari (Tashkent- Toshkent shahri) fikr yoki harakatga tegishli bo'lgan so'zlar jamlanmasi.

Ingliz tilida otlar 2 ta guruhga bo'linadi:

- Countable nouns - sanaladigan otlar

- Uncountable nouns- sanalmaydigan otlar

Countable nouns – sanaladigan otlar sanab bo'ladigan, birlik yoki ko'plik shakllarda kela oladigan otlar kiradi. Bunda ot birlik shaklda kelsa, uning oldidan a-an yoki one so'zlari qo'yiladi. Agar ko'plik shaklda kelsa, so'z oldidan many yoki few kabi ko'plikni ifodalovchi so'zlar kelishi mumkin. Misol uchun: a book-kitob, an elephant-fil bu so'zlar countable singular nouns sanaladigan birlikdagi otlar otlar hisoblanadi. Many books- ko'p kitoblar, few apples- bir nechta olmalar – countable plural nouns – sanaladigan ko'plikdagi otlar hisoblanadi.

Uncountable nouns

Uncountable nouns – sanalmaydigan , faqatgina ma'lum o'lchov biliklari bilan o'lchanadigan otlar hisoblanadi. Ushbu otlar oldidan some, a piece of, a bottle of kabi so'zlar qo'llanadi. Masalan, some money - biroz pul, a piece of cheese- pishloq

bo'lagi, bular sanalmaydigan otlarga kiradi.

Noun – (ot)larning plural (ko'plik) va singular (birlik) shakllari turli qo'shimchalar hamda so'zdagi o'zgarishlar bilan farqlanadi.

Singular nouns dagi otlar oldidan a/an artikllari yoki one so'zi kelib ularning bitta ekanligini bildiradi.

Masalan, a girl – bitta qiz

An octopus- bitta sakkizoyoq

One book- bitta kitob

Plural nouns dagi otlarni esa quyidagi qo'shimchalar qo'shish bilan yasashimiz mumkin. –s, es, ies. Ushbu qo'shimchalar so'z oxirida qo'shilib ko'plik ma'nosini anglatadi. Masalan, a girl- girls, an apple-apples, puppy- puppies. –y bilan tugagan so'zlarga –ies qo'shimchasi qo'shiladi, y harfi esa tushib qoladi.

Biz ushbu ma'lumotlarni ingliz tili darsligi orqali bilamiz, atroflicha ma'lumotga egamiz. Ushbu mavzuni dars jarayonida o'quvchiga yetkazib berishimiz, ushbu jarayonda darsni samarali kechishini ta'minlash uchun, metodik usullardan, didaktik o'yinlardan foydalanish ayni muddaodir. Ayniqsa tarqatma materiallar, ko'rgazmali qurollar, kartochkalardan foydalanish mavzuni o'quvchilar ongida chuqurroq saqlanib qolish va oson tushunish ko'nikmalarini hosil qiladi.

Bundan tashqari ushbu mavzuga doir quyidagi metoddan foydalanish ayni muddaodir.

Is the underlined noun countable or uncountable?

1. The children fell a sleep quickly after a busy day of fun.
2. Be careful! The water is deep.
3. The parade included fire trucks and police cars.
4. We like the large bottles of mineral water.
5. My mother uses real butter in the cakes she bakes.
6. How many politicians does it take to pass a simple law?
7. Most kids like milk, but Joes hates it.
8. Most pottery is made of clay.
9. Michael can play several different musical instruments.
10. I was feeling so stressed that I ate an entire box cookies.

Answers

1-countable, 2- uncountable, 3-countable, 4- countable, 5-uncountable, 6-countable, 7-uncountable, 8-uncountable, 9- countable, 10- countable

Ma'lumki, ona tili grammatikasida bo'lgani kabi, ingliz tili grammatikasida qo'shma otlar mavjud. Ingliz tilida qo'shma ot – compound noun deb ataladi. Qo'shma otlar asosan, yasalishi uchun asos bo'lgan so'zlar o'zlarining dastlabki ma'nolarini qisman yoki butunlay yo'qotadi: ular birgalikda tamoman yangi lug'aviy ma'no kasb etadi. Qo'shma ot qismlari orasidagi ma'no munosabatlari har xil. Ular o'xshash o'xshatish, qiyoslash, xoslik, biror narsaga mo'ljallanganlik, biror belgiga nisbat berish va boshqa ma'nolarni anglatadi.

Ingliz tilida qo'shma otlarning uch xil yasalish usullari mavjud:

1. Open or spaced, ya'ni ajratib byoziladigan otlar
2. Hyphenated, ya'ni chiziqcha bilan ajratib yoziladigan otlar
3. Closed or solid ya'ni qo'shib yoziladigan otlar.

Ushbu mavzu so'ngida xulosa qilshimiz mumkinki, har bir til o'rtasida ma'lum farqlar va mushtaraklik mavjud. Grammatik mavzular o'quvchilar bilimini o'rganayotgan til qurilishi haqida mustahkam bilim va tushunchaga ega bo'lishiga zamin yaratadi. Grammatik mashqlar esa til qoidalarini, unga oid bilimlarni amalda qo'llashga yordam beradi. Yuqorida biz buni countable –sanaladigan, uncountable- sanalmaydigan otlar hamda compound noun ya'ni qo'shma otlar mavzusi misolida ko'rdik. Ingliz tili darslarida ushbu mavzuni yanada yaxshiroq va mukammal tarzda tushuntirish uchun faqatgina darslik, manbalar, qo'shimcha ma'lumotlarga tayanib qolmasdan, tarqatma materiallar, ko'rgazmali qurollardan foydalanish joiz. Shuningdek, turli xil metodik o'yinlardan foydalanish darsni yanada samarali kechishiga asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Muxtorova.B, Abdusattorova Sh. O'zbek va ingliz tillarida qo'shma otlarning qiyosiy-tipologik tadqiqi. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. Maqola. 49-50

2. Muxtorova B.A Turli tizimli tillarda til konseptining leksik-semantik xususiyatlari. Golden brain,1(5) 99-103
3. Abdurazzoqova Sh. Modallik kategoriyasining lisoniy hamda mantiqiy tadqiqi. In International scientific and practical conference. N-1.pp.55-61
4. [https/ /uz.wikipedia.org](https://uz.wikipedia.org)
5. [https/ /dictionary.cambridge.org](https://dictionary.cambridge.org)